



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil maxsus son

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
Li Adik Aleksandrovichning 80 yosh yubileyiga bag'ishlanadi.*

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvaliyeva,
Y. Mahmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 9-dekabrda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 13
Adadi: 100. Buyurtma: № 199.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSh)

M. Vishovaty – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta'lim bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

S. Yusupov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar doktori

R. Altiev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
Э. Шарипов,
К. Абдувалиева,
Й. Махмудов,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
09.12.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 13. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 199.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хошимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – проректор по международным связям и дополнительному образованию Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Юсупов – заведующий кафедрой административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – доцент кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ш. Исмоилов – заведующий кафедрой трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – профессор кафедры экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Г. Юлдашева – профессор кафедры международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдашев – доцент кафедры конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Р. Алтиев – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

М. Курбанов – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и.о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Р. Кучкаров – доцент кафедры общеобразовательных дисциплин и культуры Ташкентского государственного юридического университета, кандидат филологических наук

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvalieva,
Y. Makhmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 09.12.2025.

Paper size: A4. Cond.p.f: 13.

Units: 100. Order: № 199.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khoshimkhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Deputy Rector for International Relations and Further Education of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Yusupov – Head of the Department of Administrative and Financial Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Associate Professor of the Department of Civil Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Professor of the Department of Environmental Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Associate Professor of the Department of Constitutional Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Altiev – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law at Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law at the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufiyeva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

R. Kuchkarov – Associate Professor of the Department of General Sciences and Culture at Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**

Raqamlashtirish sharoitida davlatning moliyaviy funksiyasi rivojining ayrim nazariy-huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

16 **YUSUPOV SARDORBЕК BAXODIROVICH**

Budjet jarayonida davlat va nodavlat organlarining ishtiroki

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

Tadbirkorlik faoliyati sohasida davlatning moliyaviy siyosati

32 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini moliyaviy-huquqiy tartibga solish masalalari

39 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining rivojlanish tendensiyalari

54 **SAMIGDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

"Budjet jarayoni" tushunchasi, uning xususiyatlari va bosqichlari

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**

Xalqaro standartlar va ularning O'zbekiston moliyaviy tizimiga integratsiyasi

71 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari: prinsiplari va metodlari

78 **GANIYEV BOXODIR RUSTAM O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasida kriptovalyuta sohasidagi faoliyatni tartibga solish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

84 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning tushunchasi va mohiyati huquqiy toifa sifatida

91 **JURAYEVA ASAL BAXTIYEVNA, ABDIRAXIMOV ISLOMJON ILXOMJON O'G'LI**

Germaniya va O'zbekiston xalqaro tijorat arbitrajlarida korporativ nizolarni hal etish: qiyosiy huquqiy tahlil

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

100 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**

Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy asoslari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА.
ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Отдельные теоретико-правовые вопросы развития финансовой функции государства в условиях цифровизации

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

16 ЮСУПОВ САРДОРБЕК БАХОДИРОВИЧ

Участие государственных и негосударственных органов в бюджетном процессе

23 ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ

Государственная финансовая политика в сфере предпринимательской деятельности

32 ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ

Финансово-правовое регулирование занятости в Республике Узбекистан

39 ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ

Тенденции развития законодательной базы, регулирующей деятельность высших образовательных организаций в Узбекистане

54 САМИГДЖАНОВ ФАЗЛИДДИН РАФКАТОВИЧ

Понятие бюджетного процесса, его особенности и этапы

61 АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА

Международные стандарты и их интеграция в финансовую систему Узбекистана

71 АХРОРОВ АДХАМЖОН АСРОРКУЛ УГЛИ

Научно-теоретические основы деятельности специально уполномоченных республиканских органов исполнительной власти в сфере экологии: принципы и методы

78 ГАНИЕВ БОХОДИР РУСТАМ УГЛИ

Регулирование деятельности в сфере криптовалют в Республике Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

84 РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ

Понятие и сущность корпоративного управления в акционерных обществах как юридической категории

91 ЖУРАЕВА АСАЛ БАХТИЕВНА, АБДИРАХИМОВ ИСЛОМЖОН ИЛХОМЖОН УГЛИ

Разрешение корпоративных споров в международном коммерческом арбитраже в Германии и Узбекистане: сравнительно-правовой анализ

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО.
ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

100 НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ

Экологико-правовые основы сохранения биологического разнообразия

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**

Some theoretical and legal issues of the development of the financial function of the state in the conditions of digitalization

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

16 **YUSUPOV SARDORBEC BAKHODIROVICH**

Participation of state and non-state bodies in the budget process

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

State financial policy in the sphere of entrepreneurial activity

32 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**

Financial and legal regulation in the sphere of employment of the population in Republic of Uzbekistan

39 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

Administrative and legal aspects of the development of the field of higher education until 2030 during the period of administrative reforms

54 **SAMIDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

The concept of the budget process, its characteristics and stages

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**

International standards and their integration into the financial system of Uzbekistan

71 **AKHROROV ADKHAMJON ASRORKUL UGLI**

Scientific and theoretical foundations of the activities of specially authorized republican executive authorities in the field of ecology: principles and methods

78 **GANIEV BOKHODIR RUSTAM UGLI**

Regulation of cryptocurrency activities in the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

84 **RAXMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**

The concept and essence of corporate governance in joint stock companies as a legal category

91 **JURAEVA ASAL BAKHTIEVNA, ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI**

Resolution of corporate disputes in international commercial arbitration in Germany and Uzbekistan: a comparative legal analysis

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

100 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**

Ecological and legal basis of biological diversity conservation

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/UVSS7681

UDC: 342(045)(575.1)

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLATNING MOLIYAVIY FUNKSIYASI RIVOJINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi
kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3719-6599
e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatning muhim funksiyalaridan biri bo'lgan moliyaviy funksiya, uning mazmun-mohiyati hamda bugungi raqamlashtirish jarayonida ushbu funksiyaning amalga oshirilishida yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, moliya funksiyasiga globallashtirish jarayoni ko'rsatayotgan ta'sir va uni amalga oshirish shakllari yangi ilmiy manbalar, amaldagi qonunchilik hamda O'zbekiston moliyaviy sohasidagi voqeliklar asosida o'rganilgan. Ayni paytda muallif davlat funksiyalari va ularni tasniflash masalasida ilmiy adabiyot hamda ilmiy doktrinada mavjud plyuralizm holatini qayd etib, bu boradagi qarashlarni tahlil qilgan. Shuningdek, "davlat funksiyasi" va "davlatning moliyaviy funksiyasi" tushunchalariga nisbatan o'z mualliflik yondashuvini ham bayon etgan.

Kalit so'zlar: davlat, funksiya, davlat funksiyasi, funksiyalarni tasniflash, davlatning moliyaviy funksiyasi, davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari, huquqiy shakl, tashkiliy (noqonuniy) shakl, davlatning moliyaviy funksiyalariga ta'sir qiluvchi omillar

ОТДЕЛЬНЫЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВОЙ ФУНКЦИИ ГОСУДАРСТВА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье анализируются одна из важнейших функций государства – финансовая функция, её содержание и сущностные характеристики, а также те изменения, которые происходят в процессе её реализации в современных условиях цифровизации. Кроме того, исследуется влияние процессов глобализации на финансовую функцию государства и формы её осуществления на основе новых научных источников, действующего законодательства и фактической реальности финансовой сферы Узбекистана. Автор также фиксирует наличие плюрализма в научной литературе и доктрине относительно понимания государственных функций и их классификации и подвергает соответствующие подходы

аналитическому осмыслению. Наряду с этим излагается авторское видение понятий «функция государства» и «финансовая функция государства».

Ключевые слова: государство, функция, функция государства, классификация функций, финансовая функция государства, формы осуществления государственных функций, правовая форма, организационная (ненормативная) форма, влияющие на финансовые функции государства факторы

SOME THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL FUNCTION OF THE STATE IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION

Akhmedshaeva Mavlyuda Akhatovna,

Professor at the Department of Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article analyzes the financial function, which is one of the important functions of the state, its essence and content, as well as the changes taking place in the implementation of this function in today's digitalization process. Also, the influence of the globalization process on the financial function and the forms of its implementation were studied on the basis of new scientific sources, current legislation, and realities in the financial sphere of Uzbekistan. At the same time, the author noted the state of pluralism existing in scientific literature and scientific doctrine on the issue of state functions and their classification, and analyzed views on this matter. Along with this, the author's approach to the concepts of "state function" and "state financial function" is presented.

Keywords: state, function, state function, classification of functions, financial function of the state, forms of implementation of state functions, legal form, organizational (illegal) form, factors influencing the financial functions of the state

Kirish

Davlat funksiyalari davlat nazariyasining muhim masalalaridan biridir. Binobarin, davlat funksiyalarida davlatning mohiyati, mazmuni va uning jamiyatda tutgan o'rne o'z ifodasini topadi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda, olimlar o'rtasida "davlat funksiyasi" kategoriyasini tushunish borasida turli yondashuvlar kuzatiladi. Binobarin, garchi "funksiya" so'zi lotin tilidagi "functio" so'zidan olingan bo'lib, "ijro etish", "amalga oshirish" ma'nolarini anglatadi, aslida, ushbu termin umumiy va ko'p qirralidir. Ushbu termin 1694-yilda nemis olimi G. Leybnits tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Manbalarda ta'kidlanganidek, mazkur termin umumilmiy bo'lib, biologiya, matematika, fizika, sotsiologiya, lingvistik va boshqa fanlarda keng qo'llanadi (SLOVARonline, 2025).

Ko'p hollarda ushbu termin "vazifa", "faoliyat", "majburiyat" ma'nolarida ishlatiladi. Garchi ilmiy manbalarda "davlat funksiyasi" terminiga yuzlab turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, barcha olimlar davlat funksiyasi davlatning mohiyati, maqsadi va vazifasi bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadi.

Maqolani yozishdan maqsad bugungi kun, ya'ni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda davlatning funksiyalari tizimida moliyaviy funksiyaning tutgan o'rne, uning aholi turmushi farovonligini oshirishdagi roli, moliyaviy funksiyasini amalga oshirishning huquqiy shakllarini ilmiy manbalar va amaldagi qonunchilik asosida tahlil etish va bu funksiyaning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ilgari surishdir.

Maqola mavzusining obyekti raqamlashtirish sharoitida davlat funksiyalari tizimida moliyaviy funksiyani amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Predmetini esa mamlakatimizda davlatning moliyaviy funksiyasiga oid tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, davlat funksiyasi, moliyaviy funksiya va uni amalga oshirishga oid turli ilmiy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Maqolada ilmiy bilishning umumilmiy usullari – analiz, sintez, umumlashtirish va mantiqiy tahlil, shuningdek, xususiy-huquqiy tadqiqot usullari – formal yuridik va qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Xususan, moliyaviy funksiyaning mazmunini yoritish uchun, avvalo, davlat funksiyasi kategoriyasining nazariy asoslari tahlil qilinadi (analiz). Shundan so'ng moliyaviy funksiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, amalga oshirish shakllari, shu jumladan, moliyaviy funksiyaga oid huquqiy asoslar, ushbu funksiyani amalga oshiruvchi davlat organlari, ya'ni subyektlarning huquqni qo'llash faoliyati shakllari o'rganilib, umumlashtiriladi hamda sintez qilinadi.

Asosiy qism

Shu bilan birga, gumanitar fanlar doirasida ham turli yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Funksiya kategoriyasini izohlashga doir qarashlar ichida eng muhim va keng qo'llanadiganlaridan falsafiy hamda sotsiologik yondashuvlarni alohida ta'kidlash lozim. Falsafiy yondashuvga ko'ra, funksiya – bu ikki guruh obyektlarning o'zaro munosabati bo'lib, ulardan birida sodir bo'ladigan o'zgarish ikkinchisida ham shunga o'xshash o'zgarishning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunda funksiya tushunchasiga, asosan, matematik mazmundagi talqin asos qilib olingan (Afanasev, 2018). Sotsiologik yondashuv funksiyani tushunish masalasiga boshqacha yondashadi. Unda funksiya biron-bir ijtimoiy institutning yuqori darajada tashkil qilingan ijtimoiy tizimning ehtiyojlari yoki uni tashkil etuvchi sinflar, ijtimoiy guruhlar va individlarning manfaatlariga nisbatan o'ynaydigan “roli” yoki “tutgan o'rne” ma'no-

larida qo'llanadi (SLOVARonline, 2025). Ilmiy adabiyotda aytilgan fikrlar asosida davlat funksiyasini “muayyan bir davlat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida o'z oldida turgan maqsad va vazifalarini bajarishga qaratilgan faoliyatining asosiy va bosh yo'nalishlaridir” deb ta'riflash mumkin.

Jadval

Davlatning moliyaviy funksiyasi tarifi bo'yicha olimlarning fikrlari

Mualliflar	Funksiyaga ta'rif	Munosabat
V.D. Perevalov	Davlatning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va shakli bilan belgilanadigan hamda uning mexanizmi bilan ta'minlanadigan faoliyatning asosiy yo'nalishlaridir	Ushbu ta'rif boshqalaridan farq qilgan holda, davlat funksiyalarining ularning shakli bilan bog'liqligi hamda davlat mexanizmi orqali amalga oshirishini alohida ta'kidlaydi
L.A. Morozova	Jamiatni boshqarish bo'yicha davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va mazmuni bilan belgilanadigan, ijtimoiy jarayon va munosabatlarga davlat ta'sirining alohida mexanizmi	Mazkur ta'rifda davlat funksiyasi davlat ta'siri mexanizmi sifatida talqin qilinadi, shuning uchun davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlariga urg'u biroz pasayadi
X.T. Odilqoriyev	Davlat funksiyalari davlatning ijtimoiy vazifalari namoyon bo'ladigan faoliyatining asosiy, eng muhim yo'nalishlarini belgilaydi	Ushbu ta'rifda davlat funksiyalari bilan uning vazifalari uzviy bog'liqligiga urg'u beriladi. Vazifalar esa maqsaddan kelib chiqadi
T.N. Savina	Davlat funksiyasi – bu davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, unda jamiyatni davlat tomonidan boshqarishning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati ifodalanadi	Bu ta'rifda davlat funksiyalari uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari ekaniga to'g'ri urg'u berilgan bo'lib, shuningdek, unda davlat boshqaruvining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati ifodalanishi ham alohida ta'kidlanadi

Aytish joizki, davlat funksiyasini tasniflash masalasida olimlar o'rtasida yakdillik yo'q. N. Afanasev (2018) davlatning mohiyatini o'zida aks ettiruvchi beshta asosiy funksiyani ajratadi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va tartibotni ta'minlash funksiyalari (Dembitsky, 2014). Shu o'rinda savol tug'ildi: olim davlat funksiyalarini qanday mezonlarga ko'ra tasniflagan?

Fikrimizcha, muallif davlat funksiyalarini ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha tasniflagan. Bunday tasniflashga e'tiroz bildirish qiyin, garchi yirik funksiyalar ichiga kirgan ko'plab muhim funksiyalarni ajratish imkoniyati biroz cheklangan. Odatda, ayrim olimlar davlat funksiyalarini harakat hududiga ko'ra, ichki va tashqi funksiyalarga bo'lishni unchalik ma'qullamaydi. Ularning fikricha, bunday bo'linish biroz sun'iy, chunki ichki va tashqi funksiyalar o'zaro uzviy bog'liq.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida davlat funksiyalari bir qancha mezonlar asosida tasniflanadi. Ayni paytda bunday tasniflashlar tobora ko'payib bormoqda. Ayrim olimlarning fikricha, davlat funksiyalarini tasniflash masalasidagi eng ko'p uchraydigan asosiy muammo – bu yetarlicha asoslanmagan subyektivizm holatidir. Davlat funksiyalarini tasniflashga asos bo'lgan mezonlar ko'pincha "sun'iy" va munozarali bo'lib, ular ilmiy qiziqish uyg'otmaydi.

Aslida, davlat funksiyalarini tasniflashdan maqsad – bu hodisaning chinakam mohiyatini anglash, uning jamiyatda tutgan o'rnini tahlil etish hamda mohiyatiga xos belgilarning aniqlanishidir. Funksiyalarni tasniflashning yangi-yangi asoslarini topish va shu asosda tasniflarni ko'paytirish yuqorida qayd etilgan fan oldidagi vazifani hal etishga ko'maklashmaydi.

Binobarin, davlat funksiyalarini turli mezonlar asosida bo'lish yoki ajratish ma'lum darajada nisbiy ahamiyatga ega, chunki ichki va tashqi funksiyalar o'zaro uzviy bog'liq (Afanasev, 2018). Masalan, davlatning ekologik funksiyasi ko'pchilik olimlar tomonidan

tashqi funksiyaga kiritiladi. Shu bilan birga, bu funksiya davlatning ichki funksiyasi sifatida ham namoyon bo'ladi, zero har yili davlat budjetida ekologiya masalalariga tegishli mablag'lar ajratiladi, ekologik tadbirlar moliyalashtiriladi, shuningdek, ekologik huquqiy ong, ekologik madaniyat va ekologik tafakkur shakllanishi tashkiliy jihatdan ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, davlat funksiyalari bilan ularni amalga oshirish o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakli bilan davlatning mohiyati hamda uning faoliyati chambarchas bog'liq. Davlat funksiyalarini amalga oshirish, ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, huquqiy va nohuquqiy, ya'ni tashkiliy shakllarda kechadi.

Huquqiy shaklning o'zi huquq ijodkorligi, huquqni ijro etish va huquqni muhofaza etish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Ilmiy manbalarda davlat funksiyalarini amalga oshirish shaklini davlat funksiyalarini aniq sharoitlarda bajarish bo'yicha davlat faoliyatining tashqi ifodasi sifatida tushunish keng tarqalgan (Nasriddinova, 2020). Davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakli deyilishiga sabab shundaki, bunday faoliyat tegishli subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida tegishli faoliyat olib boriladi.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shaklidan tashqari nohuquqiy, ya'ni tashkiliy shakllari ham mavjud bo'lib, u davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishga qaratilgan keng va turli tashkiliy mazmundagi harakatlarini o'zida ifodalaydi. Shu tariqa davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari davlatning o'z maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishga qaratilgan amaliy faoliyatining usullari hisoblanadi.

Mazkur o'rinda davlat funksiyalarini amalga oshirishning ikkinchi shakli "nohuquqiy" deb atalishi, nazarimizda, unchalik o'rinli emas, chunki bu atama o'zi ifodalamoqchi bo'lgan faoliyat mazmuniga mos kelmaydi. Uni "tashkiliy" deb atash maqsadga muvofiq.

Binobarin, har bir davlat organi kundalik faoliyatida o'z yo'nalishi bo'yicha davlat oldida turgan vazifalarini bajarishga qaratilgan son-sanoqsiz tashkiliy harakatlarni tizimli va muntazam ravishda amalga oshiradi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, davlat funksiyalarini amalga oshirishning tashkiliy shakli o'z ichiga tashkiliy-tartibga soluvchilik faoliyatini oladi, ya'ni bunda hujjatlar loyihalarini tayyorlash, saylovlarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha kundalik, joriy ishlar bajariladi. Tashkiliy-xo'jalik shakli esa operativ-texnikaviy va buxgalter hisobi, statistika, ta'minlash kabi ishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Tashkiliy-mafkuraviy shakl esa davlat funksiyalari bajarilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik tarbiyaviy ishlarni, yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat funksiyalari tizimida uning moliya sohasidagi funksiyalari, ayniqsa, moliyaviy nazorat funksiyasining o'rni va roli juda ahamiyatli. Olimlarning tasdiqlashicha, moliyaviy nazorat shaklidagi davlat funksiyasi davlat paydo bo'lishi bilanoq vujudga kelgan bo'lib, o'tgan davr davomida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivoji bilan bog'liq holda, mazmun va shakl jihatidan o'zgarib borgan. Binobarin, L.N. Ovsyannikov (2004) yozganidek: "Davlat funksiyalari iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy nazorat, huquq-tartibotni muhofaza etish hamda ekologik funksiyalarga bo'linadi".

Ta'kidlash joizki, ilmiy manbalarda moliyaviy nazorat tushunchasiga bir necha xil yondashuv mavjud. Bir guruh olimlar davlatning moliyaviy nazoratini davlat boshqaruvi organlari faoliyatining alohida bir turi deb qaraydi; ikkinchi guruh olimlar esa buni davlat boshqaruvi organlarining nazorat funksiyasi sifatida tushunadi; uchinchi guruh olimlar esa davlat boshqaruvi organlarining usul va vositasi deb talqin qiladi; to'rtinchi guruh olimlar uni maxsus vakolatli davlat

organlari faoliyat sohasi; nihoyat, beshinchi guruh olimlar esa uni davlat faoliyati sifatida baholaydi (Ovsyannikov, 2004).

N.I. Ximicheva fikricha, moliyaviy nazorat huquqiy normalarda belgilab qo'yilgan tartibda barcha davlat hokimiyati organlarining butun tizimi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi (Khimicheva, 2005).

Yuqoridagi fikrlarga nisbatan ta'kidlash zarurki, davlat funksiyasi – bu davlatning o'z oldida turgan maqsad va vazifalariga erishish uchun olib boradigan faoliyatining asosiy va bosh yo'nalishlaridir. Shu ma'noda alohida olingan davlat organi yoki boshqa tuzilma faoliyatini davlat funksiyasi deb tushunish maqsadga muvofiq emas (Telepneva, 2008).

Ma'lumki, har qanday davlat faoliyatida, uning rivojlanishida, aholi turmush farovonligi yuksalishida moliyaning o'rni va roli katta. Davlatning moliyaviy mablag'lari va ularni jamlash hamda oqilona taqsimlash o'ta muhim masala bo'lib, u, shubhasiz, kuchli moliyaviy nazoratni taqozo etadi.

Moliyaviy nazorat borasidagi davlat faoliyatining ushbu yo'nalishi moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksida davlatning moliyaviy nazoratiga ta'rif berilgan: "Davlatning moliyaviy nazorati – budget to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslashdir".

Davlatning moliyaviy nazorati – bu davlatning moliya sohasidagi muhim funksiyasi bo'lib, u davlatning moliya sohasidagi maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan faoliyatining asosiy va muhim bir yo'nalishidir.

Ayni paytda turli davlatlarda davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar tizimi shakllanganini kuzatish mumkin. Shunga qaramay, bu borada ma'lum umumiylik mavjud. Shu asosda

bugungi kunda dunyo davlatlarida, odatda, parlament, moliya vazirligi, sohaviy idoralar hamda davlat nazoratining alohida maxsus organlari davlat moliyaviy nazoratining subyektlari sifatida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy davlatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlament mustaqil davlat moliya nazoratini olib borishda muhim rol o'ynaydi. Aynan shu maqsadda parlament tomonidan maxsus organlar tuziladi – Hisob palatalari, Bosh auditor, Hisob sudi va shu kabilar. Jahon amaliyotida moliyaviy nazorat sohasida parlament nazorati eng samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda ham parlament – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlament nazorati doirasida davlat budjeti ijrosini nazorat qiladi. Milliy parlament huzurida Hisob palatasi faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonuni 11-moddasida parlamentning Hisob palatasi hisobotini eshitishi belgilangan. Hisob palatasi mamlakatimizda moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshiradi.

Shundan kelib chiqib, davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin: "Davlatning moliyaviy nazorat funksiyasi – bu budjet qonunchiligi ijrosini belgilangan subyektlar tomonidan nazorat qilishga qaratilgan faoliyat yo'nalishidir".

Yuqorida ham qayd etilganidek, davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakli uch yo'nalishda, ya'ni huquq ijodkorligi, ularni ijro etish hamda muhofaza qilishda ifodalanadi.

Davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshirishning huquqiy shakli, huquq ijodkorligi yo'nalishida ifodalanadigan tomoniga to'xtaladigan bo'lsak, davlatning nazorat funksiyasini tartibga soluvchi salmoqli huquqiy baza mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Davlatning ushbu funksiyasini amalga oshirishda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi va unda belgilangan tegishli normalarga e'tibor qaratish lozim. Binobarin, Budjet kodeksida budjetga oid muhim masa-

lalar bilan bir qatorda, davlat moliyaviy nazorati haqida ham yetarlicha normalar mavjud. Xususan, kodeksning 26-bobi aynan ushbu masalaga bag'ishlangan bo'lib, unda davlatning moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlar doirasi, nazoratning prinsiplari, shakllari, turlari va usullari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Aytish joizki, davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakli doirasidagi "huquqni ijro etish" yo'nalishi ham ma'lum darajada ushbu kodeksda o'z ifodasini topgan. Mazkur Kodeksning 27-bobida aynan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning huquqiy asoslari mustahkamlangan.

Davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari doirasi ham ushbu kodeksda belgilab qo'yilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi kiradi. Shu bilan birga, davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, davlatning moliyaviy sohada funksiyalari davlatning moliyaviy, iqtisodiy mustaqilligi, aholi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

Xulosa

1. Davlat funksiyalari davlat va huquq nazariyasining eng muhim va nisbatan kam o'rganilgan mavzularidan biridir. Milliy yuridik adabiyotda, xususan, davlat va huquq nazariyasi doirasida, so'nggi yillarda davlat funksiyalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kamligi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda davlat faoliyati raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitida amalga oshirila-

yotgani sababli davlat funksiyalari mazmunan va shaklan jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu munosabat bilan davlat funksiyalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonini ko'paytirish zarurati mavjud.

2. Ilmiy manbalarda davlat funksiyalari turlari va ularning tasnifi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Bu, bir jihatdan, tabiiy jarayon bo'lib, zero fan muayyan masalani turli qarashlar doirasida rivojlantiradi. Shu bilan birga, "Davlat va huquq nazariyasi" moduli oliy yuridik ta'limning birinchi kursida o'tilishi, talabalarning yuridik tafakkuri darajasini hisobga olgan holda, davlat funksiyasiga oid masalalarni yoritish maqsadga muvofiqdir. Magistratura bosqichida esa ushbu masalaning muammoli jihatlari chuqurroq o'rganilishi lozim.

3. Davlatning moliyaviy funksiyasini tadqiq etish masalasi ham Davlat va huquq nazariyasi fani oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ayrim olimlar davlatning moliyaviy nazorat funksiyasini davlat funksiyasi sifatida e'tirof etsa, boshqalar uni iqtisodiy funksiya doirasida tahlil qiladi. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy omilning

zamonaviy davlat rivoji va aholi turmush farovonligini oshirishdagi o'rni, shuningdek, davlatning moliyaviy funksiyasini asosiy funksiya sifatida e'tirof etgan holda, 12.00.01 – "Davlat va huquq nazariyasi. Huquqiy ta'limotlar tarixi" mutaxassisligi doirasida ushbu masala yuzasidan tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

4. Davlat moliyaviy funksiyasining nazariy-huquqiy asoslarini o'rganishda uning tarixini bilish ham muhim ilmiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston davlatchiligi tarixida mavjud bo'lgan davlatlarning moliyaviy funksiyasini amalga oshirish borasidagi faoliyatlarini tadqiq etish, jumladan, buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz davlatchiligida moliyaviy ishlarni tashkil etish tajribasini o'rganish bugungi kun uchun ham qiziqarli, zarur va muhimdir. Zero Amir Temurning soliq siyosati haqidagi "Rayiyat ham qaqshab qolmasin, xazina ham bo'shab qolmasin" degan fikri bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, uni moliyaviy funksiyaning mazmun-mohiyatiga qaratish mumkin.

REFERENCES

1. Afanasev, V. S. (2018). Funktsii gosudarstva: printsipy filosofskogo i sistemnogo analiza [Functions of the state: principles of philosophical and systemic analysis]. *Proceedings of the Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 3(47).
2. Dembitsky, A. A. (2014). Ponyatiye funktsii gosudarstva: sushchnost' i opredelenie [The concept of the function of the state: essence and definition]. *Scientific Notes of Orel State University*, 4(60). <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-funktsii-gosudarstva-suschnost-i-opredelenie>
3. Khamdamov, B. K. (2022). Gosudarstvennyy finansovyy kontrol' v Respublike Uzbekistan i perspektivy ego razvitiya [State financial control in the Republic of Uzbekistan and prospects for its development]. *Moliyaviy texnologiyalar [Financial Technologies]*, 1, 12–21. <https://fintech.tsue.uz/?p=109>
4. Khimicheva, N. I. (2005). *Finansovoe pravo [Financial law]*. https://royallib.com/book/himicheva_n/finansovoe_pravo.html
5. Li, A. (2025). *Problemy finansovo-pravovogo regulirovaniya predprinimatel'skoy deyatel'nosti v Respublike Uzbekistan [Problems of financial and legal regulation of entrepreneurial activity in the Republic of Uzbekistan]* (pp. 20–21). [Abstract of Dissertation]. Tashkent.

6. Lisitsin, D. A. (2004). Finansovaya deyatel'nost' gosudarstva: sodержanie, metody osushchestvleniya [Financial activities of the state: content, methods of implementation]. [Abstract of PhD thesis]. <https://www.dissercat.com/content/finansovaya-deyatelnost-gosudarstva-soderzhanie-metody-osushchestvleniya>
7. Nasriddinova, N. F. (2020). Sushchnost' i funktsii gosudarstva [The essence and functions of the state] (pp. 79–81). *Law and State: Theory and Practice*, 4(184).
8. Nasybullin, F. (2013). K voprosu ob ekonomicheskoy funktsii gosudarstva v usloviyakh rynka [On the issue of the economic function of the state in a market economy]. *Vestnik Volzhskogo universiteta im. V. N. Tatishcheva* [Bulletin of the Volga University named after V.N. Tatishchev]. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-ekonomicheskoy-funktsii-gosudarstva-v-usloviyah-rynka>
9. Ovsyannikov, L. N. (2004). *Srochnaya neobkhodimost' v zakone* [Urgent need for law] (pp. 61–64). <https://eclipse.ue-varna.bg/catalog/view/XWNKF86JPW>
10. Rasskazov, L. P. (2010). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law] (p. 85). Moscow: RIOR; INFRA-M Publ.
11. Savina, T. N. (2012). Funktsii gosudarstva v sovremennoy ekonomike: sodержanie i osobennosti [Functions of the state in the modern economy: content and features]. *Kontentus*. <https://cyberleninka.ru/article/n/funktsii-gosudarstva-v-sovremennoy-ekonomike-soderzhanie-i-osobennosti>
12. SLOVARonline. (2025). Bol'shoy entsiklopedicheskiy slovar' [Large Encyclopedic Dictionary]. <https://rus-big-enc-dict.slovaronline.com/>
13. SLOVARonline. (2025). Filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar' [Philosophical Encyclopedic Dictionary]. <https://rus-philosophy-enc.slovaronline.com/>
14. Telepneva, A. V. (2008). Finansovyy kontrol' kak funktsiya gosudarstva [Financial control as a function of the state] (pp. 54–58). *Zhurnal Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo universiteta MVD Rossii* [Journal of the Saint Petersburg State University of the Ministry of Internal Affairs of Russia], 2(38). <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovyy-kontrol-kak-funktsiya-gosudarstva>
15. Turakhodzhaeva, M. (1998). Organizatsiya i metody finansovogo kontrolya v Respublike Uzbekistan [Organization and methods of financial control in the Republic of Uzbekistan] [Abstract of PhD thesis]. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-i-metody-finansovogo-kontrolya-v-respublike-uzbekistan>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL MAXSUS SON

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI